



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 03 | pp. 244-248 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI RESURLARDAN FOYDALANISH



Sayyora Qulmatova

Raqamli iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi

Tursunova Sadoqat Ravshan qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

2 bosqich magistranti

Anotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish orqali ularning samaradorligini oshirish imkoniyatlari hamda raqamli vositalar yordamida ta'lim tashkilotlarini boshqarish va o'quv jarayonlarini yaxshilash yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada elektron kutubxonalar imkoniyatlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'limda raqamli texnologiyalar, raqamli platformalar, raqamli resurslar, elektron kutubxonalar.

Kirish

2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va axborot resurslariga keng imkoniyatlar yaratish bo'yicha bir qator maqsadlar belgilangan. Strategiyada elektron kutubxonalar asosida bilim resurslarini keng jamoatchilikka yetkazish, ta'lim va ilmiy izlanishlar uchun zarur axborot resurslarining raqamlashtirilgan arxivlarini yaratish masalalari ko'rib chiqilgan. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida ta'lim tizimida boshqa raqamli o'quv resurslarini joriy etish asosiy maqsadlaridan biridir[1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi "Ta'lim tizimida raqamli o'qitish usullarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Ilm-fan va ta'limni rivojlantirish orqali inson kapitalini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi farmonlarida ta'limda raqamli texnologiyalarni kengaytirish, jumladan, elektron kutubxonalar tashkil etish va ularni rivojlantirish hamda ilm-fan sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida qayd etilgan[2,3]. Ta'lim resurslari va elektron kutubxonalar orqali bilimga onlayn kirishni kengaytirish va bu orqali o'quv jarayonlarini takomillashtirish belgilangan.

Elektron kutubxonalar ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar olib kirib, o'qituvchi va talabalarga keng qamrovli va tezkor ma'lumotlarni taqdim etish imkonini beradi. Shu bilan birga, elektron kutubxonalardan foydalanish o'quv resurslarini qidirish va ulardan samarali foydalanishni ta'minlab, ta'lim sifati va qamrovini oshirishga xizmat qiladi.


Adabiyotlar tahlili. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim muhitini yaratish sifatli o'qitish jarayonini tashkil etish imkonini beradi [4], shuningdek, raqamli resurslarni qo'llash talabalarning kognitiv salohiyatini oshirishga, ularning mustaqilligini oshirishga, motivatsiyani hisobga olgan holda, o'quv jarayonlarini har tomonlama

farqlashni ta'minlashga yordam beradi [5]. Tadqiqotchilar tomonidan raqamli platformalar, ta'lim jarayonini avtomatlashtirish va onlayn ta'lim resurslarini yaratish[6], raqamli o'quv kontentlarini yaratish va boshqarishda elektron ta'lim vositalarini joriy qilish orqali ta'lim sifatini oshirish, pedagogik texnologiyalarni raqamlashtirish, raqamli ta'lim platformalarining imkoniyatlarini tadqiq qilishda elektron kitoblar, masofaviy o'quv platformalari va onlayn testlash tizimlarini ta'limga integratsiyalash[7], raqamli baholash tizimlarini rivojlantirish, jumladan, onlayn test tizimlari va adaptiv baholash usullarini ta'lim jarayoniga tatbiq qilish [8] bo'yicha tadqiqotlar olib boradilar.

Raqamli ta'lim resurslarini yaratish va LMS (Learning Management System) platformalarini rivojlantirish[9], multimediali o'quv vositalarini yaratish orqali ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qilish[8]ni amalga oshiriladi. Raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish o'quvchi faoliyatining individual xususiyatini o'z zimmasiga oladi – har bir talaba o'zi uchun qulay bo'lgan, uning umumiy tayyorgarligi, qobiliyati, malakasi va hissiy holatiga mos keladigan sur'atda ishlaydi. Elektron kutubxonalar nafaqat qog'oz shaklidagi an'anaviy kitoblar o'rnini bosuvchi raqamli formatdagi omborlar, balki foydalanuvchilar uchun yangi bilimlar yaratish va ulardan foydalanish imkonini beruvchi platformalardir[10].

Elektron kutubxonalarni axborot tarqatishning kelajagi sifatida ko'radi. Uning fikricha, elektron kutubxonalar raqamli kontentga oson va tezkor kirishni ta'minlabgina qolmay, balki axborotni saqlash va uzatish sifatini yaxshilash imkonini ham beradi.

Metodlar va uslublar. Ta'limni raqamli texnologiyalar asosida boshqarish tizimi (Digital Education Management System) — ta'lim jarayonini avtomatlashtirish imkoniyatini ta'minlaydigan dasturiy va raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan tizimdir. Bu tizimlar ta'lim jarayonidagi barcha ishtirokchilar (o'quvchilar, o'qituvchilar, boshqaruvchilar va ota-onalar) uchun qulay platforma o'quvchilarning individual mustaqil ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun sharoit yaratiradi, ularning o'z-o'zini rivojlantirishi, tarbiyalashi va anglash ko'nikmalarini shakllantirishi, o'qituvchilar va o'quvchilarni ta'lim maqsadlari va mazmuniga mos keladigan dolzarb ma'lumotlarni tezkorlik bilan ta'minlashlari orqali ta'lim samaradorligini oshiradi(1-rasm).




1-rasm. Ta'lim tashkilotlari faoliyatida foydalanadigan raqamli texnologiyalar

Ta'lim tashkilotlarida o'qitushning mahsuldorligiga erishish uchun talabalar uchun foydali raqamli vositalarni joriy etishlari va talabalarni qo'llab-quvvatlash va faolligini oshirishlari mumkin. Shuningdek, raqamli texnologiyalar o'qituvchilarga o'qitish usullarini takomillashtirish va o'rganishni shaxsiylashtirish imkonini beradi. Elektron kutubxonalar axborotga tezkor va qulay kirish vositasi bo'lib, ta'lim va tadqiqot faoliyatini kengaytirib, jamiyatga keng imkoniyatlar yaratadi.

Tahlil va natijalar. Ta'lim tashkilotlarida foydalaniladigan raqamli texnologiyalar o'qitish sifatini oshirish va o'quv jarayonini samarali tashkil qilish uchun keng qo'llaniladi. Ta'lim boshqarish tizimi — bu maktab faoliyatini avtomatlashtirish, o'quv jarayonini samarali tashkil qilish va kuzatish, shuningdek, o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar o'rtasida tezkor aloqa o'rnatish uchun zamonaviy vositalarni o'z ichiga olgan tizimdir. Bu vositalar ichida Elektron kutubxonalar o'z o'rniga ega. Ta'lim sohasida elektron kutubxonalar raqamli formatdagi axborot resurslarini jamoatchilikka yetkazish orqali yosh avlodga bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Elektron kutubxonalar orqali ta'lim tizimini qo'llab-quvvatlash, ilmiy izlanishlar uchun ochiq raqamli platformalardan foydalanish imkoniyati yaratiladi¹. Elektron kutubxonalar orqali bilim va ma'lumotlar ommabop bo'ladi, bu esa iqtisodiyotning raqamli sektoriga qo'shimcha yordam beradi.

¹ 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi

Raqamli resurslar kutubxonasi ta'limni raqamlashtirish jarayonida asosiy vositalardan biridir. Bu platforma ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli qilishda katta rol o'ynaydi, chunki o'quvchilar nazariy bilimlarni turli xil multimediali materiallar orqali mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchilar uchun esa yangi pedagogik texnologiyalar va metodlarni qo'llash imkoniyatini beradi. Umuman olganda, raqamli resurslar kutubxonasi o'quv jarayonini yanada qulay, qiziqarli va moslashuvchan qilishga yordam beradi, shuningdek, ta'lim sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Elektron kitoblar nafaqat o'qish imkoniyatini beradi, balki interaktivlik va yangilanish uchun ham qulaydir [10]. Elektron kutubxonalar 24/7 foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lishi o'z-o'ziga xizmat qilishga, bilimi va raqamli savodxonligini oshirishga sabab bo'ladi.



2-rasm. Elektron kutubxonalarni o'quv jarayonida qo'llash.

Elektron kutubxonalar global miqyosda bilimlarni tarqatish va madaniy xilma-xillikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Ular turli mamlakatlar va madaniyatlar vakillari o'rtasida bilim almashishni osonlashtiradi[11]. Elektron kutubxonalarda shaxsiylashtirilgan xizmatlar foydalanuvchilarning individual ehtiyojlariga moslashgan holda xizmat ko'rsatish samaradorligini oshiradi[12]. Elektron kutubxonalarning ekologik samaradorligi ham e'tiborga loyiq. Ular qog'oz iste'molini kamaytirish orqali o'rmonlarni saqlanishiga va karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirishga hissa qo'shadi [13].

Xulosa. Elektron kutubxonalar ta'limni raqamlashtirish jarayonida asosiy vositalardan biridir. Bu raqamli resurslar ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli qilishda katta rol o'ynaydi, chunki o'quvchilar nazariy bilimlarni turli xil multimediali materiallar orqali mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Umuman olganda, raqamli resurslar kutubxonasi o'quv jarayonini yanada qulay, qiziqarli va moslashuvchan qilishga yordam beradi, shuningdek, ta'lim sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5.10.2020-yildagi "Ta'lim tizimida raqamli o'qitish usullarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6.04. 2021-yildagi "Ta'lim tizimida raqamli o'qitish usullarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "Ilm-fan va ta'limni rivojlantirish orqali inson kapitalini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni

4. Takamatsu, K., et al.: A new concept of ICT on edinformatics in higher education. In: Yang, X.-S., Sherratt, S., Dey, N., Joshi, A. (eds.) Proceedings of Sixth International Congress on Information and Communication Technology. LNNS, vol. 235, pp. 693–700. Springer, Singapore (2022). https://doi.org/10.1007/978-981-16-2377-6_64
5. Baig, M.I., Shuib, L., Yadegaridehkordi, E.: E-learning adoption in higher education: a review. *Inf. Dev.* 38(4), 570–588 (2022). <https://doi.org/10.1177/02666669211008224>
6. Sherzod Shodmonov. (2020). "Raqamli o'quv platformalari va ta'lim jarayonini avtomatlashtirish". Xalqaro ta'lim texnologiyalari konferensiyasi
7. Tohir Tursunov. (2019). "Elektron ta'lim vositalarini joriy qilish va raqamli o'quv kontentlarini boshqarish". Ta'limda innovatsion texnologiyalar
8. Dilmurod Azimov. (2021). "Raqamli ta'lim platformalarining imkoniyatlari va masofaviy o'quv tizimlari". O'zbekistonda ta'lim texnologiyalarining rivoji
9. Nodir Bobomurodov. (2018). "Raqamli baholash tizimlari va onlayn testlash tizimlarining rivoji". Pedagogika va raqamli baholash
9. Madina Niyozova. (2022). "LMS platformalarini rivojlantirish va raqamli ta'lim resurslarini yaratish".
10. James G. Neal. (2016). Electronic libraries: digital libraries and opportunities for users to create new knowledge . *Journal of Digital Libraries*.
11. Akbarov, A. (2023) 'O'zbekistonda elektron kutubxonalarning rivojlanish istiqbollari', *Fan va ta'lim*, 2, 78-89-betlar.
12. Johnson, K. (2022) 'Remote Access to Digital Libraries: Bridging the Information Gap', *Information Technology and Libraries*, 41(3), pp. 215-230.
13. Lee, S. (2020) 'Advanced Search Technologies in Digital Libraries', *Digital Library Perspectives*, 36(4), pp. 301-315

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

